



# TIBBIYOTNOMA



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 12 2023 YIL 25 DEKABR

## YANGI YIL TABRIGI



**QUTLUG' QADAMLAR BILAN KIRIB KELAYOTGAN  
YANGI – 2024 YIL MUBORAK BO'LSIN!**

**Tarix sahifalaridan joy olayotgan 2023 yilda yurtimizning barcha sohalarida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu esa Prezidentimiz tashabbusi bilan olib borilayotgan odilona siyosat natijasi, deb aytish mumkin.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiya kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga bayram tabrigida hech shubhasiz, tom ma'noda xalqchil qomus bo'lgan Asosiy Qonunimiz Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlarimiz ortga qaytmasligining mustahkam huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilishini, Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga, kundalik hayotimizga chuqur singdirishimiz zarurligi, inson, uning hayoti, huquq va erkinliklarini himoya qilish, Qonuniy manfaatlarini ta'minlash, inson qadrini ulug'lash bu boradagi islohotlarimiz markaziga olib chiqilayotganini alohida ta'kidlab o'tdi.

O'tgan 2023 yil – "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da Akademiya hayotida muhim voqealarga boy bo'lganini alohida ta'kidlash joiz. Jumladan, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi biz kutgan natijalarni berdi. Dunyon-

ing ko'zga ko'ringan oliy ta'lim muassasalari bilan yo'lga qo'yilgan hamkorliklar bizning qo'lga kiritgan yutuqlarimizdan sanaladi. Ilmiy tadqiqotlar borasida ham ahamiyatga molik, ijobiy yutuqlarga erishildi. Quvonarlisi yangidan-yangi ilmiy tadqiqotlar va ixtirochilik ishlari respublikamiz jamoatchiligi e'tiborini qozondi.

Ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va sport sohasida qilingan ishlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar ham o'ziga xos salmoqqa ega. Akademiya ta'lim oluvchi talaba-yoshlarning yutuqlarini ko'rib, olib borilayotgan tizimli ishlarning samarasi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Talaba yoshlar orasida Prezident, Ibn Sino nomdor stipendiantlarning ko'plab chiqqani quvonarli hol. Shu bilan birga, Toshkent tibbiyot akademiyasida faoliyat ko'rsatgan 28 nafar mashhur akademik va professor nomidagi stipendiya ta'sis etilib, ko'plab talabalarimiz sazovor bo'lishdi. Bu kabi

yoshlarimizning safi yanada kengayishiga tilakdoshman.

Qutlug' qadamlar bilan kirib kelayotgan yangi 2024 yilda ham Akademiya jamoasi katta-katta rejalarini amalga oshirish, bir qator xayrli tadbirlarni o'tkazishni mo'ljallamoqda.

Qadrli ustozlar, muhtaram professor-o'qituvchilar, aziz talabalar!

Sizlarni yana bir bor kirib kelayotgan Yangi yilingiz bilan chin qalbidan muborakbod etaman. Ilmiy, ijodiy, o'qishdagi faoliyatingiz va intilishlaringizda muvaffaqiyatlar, oilangizga totuvlik, o'zingizga mustahkam sog'liq, xonadoningizga fayzu baraka tilayman!

Yurtimizda yashayotgan har bir oila, har bir inson murod-maqsadiga yetsin! Kirib kelayotgan Yangi yil ona diyorimizga fayzu baraka, yangi yutuq va zafarlar olib kelsin!

**A.SHADMANOV,**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori**

Hikmat



*Bo'lsin qordek toza, musaffo qadam qo'ygan  
Yangi yilingiz!*



Hikmat



## YANGI KONSTITUTSIYA – TARAQQIYOT QOMUSI

**Har bir mustaqil davlat huquqiy poydevorini qomusiy tayanchi bo'lmish – Konstitutsiyasini yaratadi. «Konstitutsiya» – (lotincha) nizom va qoidalar yig'indisi, davlatning asosiy oliy qonuni bo'lib, shu asosida qonunlar, qarorlar, farmon va farmoyishlarni qabul qiladi.**

Tarixga nazar tashlasak, huquqiy tasnifiga ko'ra yozilgan va yozilmagan konstitutsiyalar bo'lgan. Milloddan avvalgi 1792–1750 yillarda Vavilon davlati hukmdori Hammurapi qabul qilgan 247 moddadan iborat qonuni va Temuriylar saltanatidagi «Temur tuzuklari» kabi qonunlar yozilmagan konstitutsiyaga misoldir.

Mustaqillik yillarida Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiy kurash xalqimizning tinchligi, erkin va farovon hayot kechirishi, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Davlatimizning Asosiy Qonuni oliy yuridik kuchga ega bo'lgan siyosiy-huquqiy hujjatdir. O'zbekiston Respublikasi Bosh Qomusi eng taraqqiy etgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan bo'lib, Prezidentlik boshqaruv shaklidagi suveren demokratik respublika hisoblanadi. Konstitutsiyada jamiyat va davlatning eng muhim masalalari umumiy ovoz (referendum)ga qo'yilib, hal qilinadi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha huquqiy madaniyatni yuksalti-

rish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Aynan shu nuqtai nazardan 20 yildan ortiq vaqt avval qabul qilingan Bosh Qomusimiz bo'lgan Konstitutsiyaning yangidan mezonlarini ishlab chiqish masalasini davrning o'zi taqozo etdi.

2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Referendumida umumxalq ovoz berish orqali Yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Yangi qabul qilingan Konstitutsiyamizda oliy qadriyat sifatida belgilab qo'yilgan inson huquqlarini va manfaatlarini ta'minlash masalasi eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Huquqni muhofaza qilishda ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash lozim.

Yangi qabul qilingan 65 foizi yangilangan ya'ni «to'lishgan» Bosh Qomusimiz 2023-yil 1-maydan kuchga kirdi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyaga o'tgan davrdan buyon 15 marta o'zgarishlar kiritilgan edi, keyinchalik o'zgarishlar ko'lami kengayib borayotganligi bois yangilanish natijasida moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – dunyodagi eng rivojlangan demokratik, eng mukammal konsti-

tutsiyalarning biri sifatida e'tirof etilmoqda. Qonun hamma uchun barobardir. Konstitutsiyamizning negizida shaxs va jamiyat munosabatlarining farovonligini ta'minlovchi maqsad yotadi. Shuningdek, aynan ilmiy ijod qilayotgan tadqiqotchilarning huquqlari ham qonun himoyasida bo'lib, I bob 53-moddasida har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat va yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi deb ko'rsatilgan. Aynan bizning sohamizga bog'liq Yangi Konstitutsiyaning 48-moddasida har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Bosh Qomusimizni chuqur o'rganish biz, yoshlar uchun tafakkurimizni boyitadi, huquqiy-ma'naviy dunyoqarashimizni yuksaltirib boradi. Vatanimizning dunyo hamjamiyatidagi nufuzli o'ringa ega bo'lishida xalqimizni ezgu g'oya, ezgu maqsad, ezgu amal yo'lida jiplashtirishda dasturulamal vazifasini o'tamoqda.

**Inobatxon KALNIYAZOVA,**  
TTA Epidemiologiya kafedrasi  
assistenti



## TALABALAR VA DEPUTATLAR UCHRASHUVI

**Toshkent tibbiyot akademiyasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari ishtirokida o'tkazilgan uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati to'g'risida so'z bordi.**

“O'zbekistonda Konstitutsiyaning ijodkori – xalq. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yaratishda har bir fuqaroning fikri o'rganildi, har bir mulohaza inobatga olindi. Boisi, ijtimoiy mamlakatda qonunlar negizida, avvalo, inson sha'ni va qadr-qimmatini ustun bo'lishi muqarrardir”.


Toshkent tibbiyot akademiyasida Oliy Majlis Qo-

nunchilik palatasi deputatlari ishtirokida o'tkazilgan uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati to'g'risida so'z yuritildi.

Deputatlar Bosh qonunimizdagi aholi salomatligini saqlashga doir moddalar mazmuni haqida atroflicha tushuncha berdi. Skrin-ing tekshiruvlaridan tortib

qishloq shifokori dasturining afzalliklari, tibbiy xizmat ko'rsatishning yangi modeli haqida so'z yuritildi. Aholiga sifatli universal patronaj xizmati ko'rsatish, tibbiy sug'urta borasidagi qulayliklarning inson va uning farovon hayoti uchun degan tamoyillardan kelib chiqqani mohiyati tushuntirildi.

TTA Axborot xizmati





**Toshkent tibbiyot akademiyasida bag'rikeng, samimiy, millat va yurt taraqqiyoti uchun xolis xizmat qiladigan olimlar yetarlicha. Ular vijdonni turmush tarzi, deb bilib, imkon darajasida o'z mavqe-manoqiblaridan samarali foydalanib, bugungi kun taraqqiyotiga hissa qo'shgan holda kelajak avlod uchun ham foydali va manfaatli ilmiy, ijodiy meroslar qoldirib kelishmoqda.**

## ILMIY MUASSASALARNING HAMKORLIK SAMARASI

Akademiyaning allergologiya kafedrasini mudiri, meditsina fanlari doktori, professor Ilmira Roziqova, ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, tibbiyot fanlari nomzodi Nargiza Aydarova va Respublika sog'liqni saqlash a'lochisi, Turon Xalq yozuvchisi Qutbiddin Nizomovlar ana shunday umrining har bir oni va daqiqasini savob ishlarga baxshida qilib kelayotgan ilm saxovatpesahalaridir. Markaz xodimlarining sa'y-harakatlari bilan O'zbekiston Respublikasi Allergologiya ilmiy-amaliy markazida "O'zbekiston Respublikasi allergologlari, klinik immunologlarining III-xalqaro Kongressi" bo'lib o'tdi. Kongressda jahonning bir qator nufuzi yuksak, xorij davlatlaridan dunyo tan olgan olimlar, professor-o'qituvchilar, amaliyotdagi allergolog va immunolog shifokorlar ishtirok etdi. Ikki kun davom etgan mazkur kongress allergologiyaning va immunologiyaning bugungi kunda holati, insoniyatni tobora o'z domiga tortayotgan allergik xastaliklar va immunitet zaiflashishi holatlarini birgalikda, hamkorlikda yechimini topish yo'llari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning shaxsan e'tibori tufayli qad ko'targan zamonaviy Allergologiya markazi o'zining serhashamligi, poyindorligi bilan dunyoning ko'plab davlatlaridan tashrif buyurgan olimlarni lol qoldirdi, ular o'z nutqlarida e'tiroflari va havaslarini yashira olishmadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz lozimki,

mazkur ilmiy markazdagi kongress va ilmiy anjumanlar boshqa tashkilot va markaz, kafedralarnikidan katta farq qiladi. Deyarli har yili o'tkaziladigan bunday ilmiy mujodala va mushoiralarda erkinlik, bag'rikenglik hukm surgani bois jabhasi butunlay boshqa bo'lgan kafedra va ilmiy markazlarning xodimlari ham o'z ma'ruzalari va maqolalari bilan ishtirok etadi. Fanlar kesimidagi oraliq holatlar, uyg'unlashib kelgan xastaliklar muhokama qilinadi va anjumandan keyin ular amaliyotga joriy qilinib, minglab hastahol va muhtalolarning jonlariga oro kiradi, turmush tarzini yaxshilab umrini uzaytiradi. Men ham har gal o'nlab, dolzarb ilmiy masalalar bo'yicha ishtirok etaman. Bu gal ham bolalar xirurgiyasi, urologiyasida allergik holatlarni uyg'unlashib kelishi, shuningdek, oliy ta'lim metodologiyasida talabalarni o'qitish metodikasi borasida o'nta xalqaro ilmiy maqolalarim bilan ishtirok etdim. Bizga bu borada keng yo'l ochib bergan Markaz xodimlaridan, ayniqsa professor Ilmira Roziqovadan behad minnatdor bo'ldim. Shuningdek, Markaz va kafedra Turon Fanlar Akademiyasi, Xalqaro Turon yozuvchilar uyushmasi bilan keng ilmiy-amaliy hamkorlik qiladi. Shu bois mazkur Markazda Turon Xalq yozuvchisi unvoniga sazovor bo'lgan Qutbiddin Nizomov kabi ahli ilmlar faoliyat yuritadi. Bu gal ham aynan shu udum takrorlandi. Kongressda o'z nutqi va tabrigi bilan Turon Fanlar akademi-

yasi prezidenti, Leybnis nomli Yevropa tabiiy fanlar hamda Tojikistonning Nuri Xo'jand ilmiy akademiyalari akademigi, tarix fanlari doktori, professor Haydarbek Nazirbekovich Bobobekov o'z tabrigi va nutqi bilan ishtirok etib, professor Ilmira Roziqovaga akademiklik diplomi, ko'krak nishoni hamda guvohnomasini tantanali topshirdi. Bu yuksak e'tirof olis-yaqin xorij davlatlaridan ishtirok etgan olimlar tomonidan ham gulduros qarsaklar, havas va quvonch bilan kutib olindi. Shuningdek, Akademiya prezidenti jahonning ko'plab davlatlarining nufuzli akademiyalari bilan hamkorlik natijasida Turon Fanlar akademiyasidan ikki nafar nomzod Yevropa, ikki nafari Tojikiston fanlar akademiyasi akademikligiga qabul qilinganini e'tirof etib o'tdi. Kongressda o'zaro integratsiyalarni yaxshilashga qo'shgan ulkan hissalar uchun Haydarbek Bobobekov va Alijon Zohidiylarga Markaz tashakkurnomalari hamda ishtirokchi sertifikatleri tantanali topshirildi.

Biz o'z navbatida yurtimizning eng munosib olimlari har doim e'tirof etilishi, muvofiq taqdirlanishi lozimligini ta'kidlab, kongressdan ulkan taassurotlar va ilm zahiralimiz boyigan holda qaytdik.

**Alijon FAQIROV,**  
Turon Fanlar akademiyasi va Yevropa tabiiy fanlar akademiyalari akademigi,  
Respublika sog'liqni saqlash a'lochisi







## MAHORAT DARSII: O'QITISH VA TAJRIBA ALMASHISHNING INTERFAOL SHAKLI...

**Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or xorijiy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.**



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida belgilangan vazifalarning 1-bandi bo'yicha belgilangan vazifalarda "har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish" ko'rsatilgan. Shu nuqtai nazardan chet ellik yetuk mutaxassis professor-o'qituvchilar tomonidan ma'ruzalar, mahorat darslarni tashkil etish amaliy ahamiyatga ega.

Mahorat darsi: o'qitish va tajriba almashishning interfaol shakli bo'lib, u trening va anjuman formatini birlashtiradi. Shuningdek, kasbiy darajani oshirish va almashish maqsadida turli usullar va texnologiyalar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni amaliyotga tatbiq etish uchun o'quv seminarini o'tkazishning zamonaviy shakli, ilg'or tajribalar bilan o'zaro almashinuv, mahorat darsi ishtirokchilari dunyo-qarashlarini kengaytirish va bilimlarini eng so'nggi yutuqlar bilan tanishtirish

orqali chuqurlashtirish hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan va Toshkent tibbiyot akademiyasining Ilmiy Kengashida qabul qilingan qaroriga javoban 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasida yil davomida xorij olimlari ishtirokida turli mavzularda mahorat darslari o'tkazilib turiladi. Jumladan, kafedrada Hindistonning Gudjarat shtati Barodo shahrida joylashgan "Yurak ritmi instituti" asoschilari: Anand Axudja va Nirav Bxalanilar tomonidan "Arterial gipertenziyani tashxislash va zamonaviy davolash" mavzusida o'tkazilgan mahorat darsi o'zining dolzarbligi va ahamiyatligi bilan ajralib turdi.

Mahorat darsida kafedra professor-o'qituvchilari, "terapiya", "kardiologiya" yo'nalishi magistr-rezidentlari, klinik ordinatorlar ishtirok etishdi. Olimlar o'z chiqishlarida dastlab o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan klinika haqida, u yerda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, davolashda qo'llanilayotgan oxirgi yutuqlarning ahamiyati haqida gapirishdi. Jumladan ular faoliyat ko'rsatayotgan klinikada shu paytgacha 5000 ga yaqin koronar angiografiya va 2000 ta koronar angioplastika amaliyotlari o'tkazilgan.

Kafedraning hamkor Janubiy Qozog'iston Meditsina Akademiyasining terapiya va kardiologiya kafedrasida xodimlari tomonidan esa tibbiy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha pedagogika sohasida ham o'tkazilgan mahorat darslari mavzuning dolzarbligi va ilmiy mazmuni va o'qitish metodlariga odatdagi an'analardan tashqariga chiqadigan yangi g'oyaning mavjudligi hamda qodirligi bilan kasbiy ta'limni takomillashtirib, amaliy ko'nikmalarni yanada boyitishda samarali hisoblandi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir pedagog-o'qituvchi o'z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishda mahorat darslari katta amaliy ahamiyatga ega va samarali innovatsion texnologiya usullaridan biri hisoblanadi.

**Ozim JABBAROV,**  
2-son fakultet va gospital terapiya,  
nefrologiya va gemodializ  
kafedrasini mudiri, professor,  
**Shoira QODIROVA,**  
shu kafedra katta o'qituvchisi







## PREZIDENT STIPENDIYASI SOHIBI

«Men shu aziz va muqaddas Vatanda tugʻilganimdan faxrlanaman, Toshkent tibbiyot akademiyasidek, zamonaviy oliygohda bilim olayotganimdan gʻururlanaman».

Bu ibora mamlakatimizdagi eng nufuzli tibbiyot akademiyasida tahsil olayotgan har bir talabaning qalb amriga aylanib ulgurdi.



Boisi Toshkent tibbiyot akademiyasida yangi davr tibbiyot ilmini oʻrganish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Biz buni yosh iqtidorlarimizning muvaffaqiyatlarida koʻrishimiz mumkin.

Ismoilov Ulugʻbek Ilhomjon oʻgʻli 2015 yilda Margʻilon akademik litseyini tamomlagach, Toshkent tibbiyot akademiyasining davolash fakultetiga shartnoma asosida qabul qilingan.

Hozirda u TTA “Kardiologiya” yoʻnalishi 3-bosqich talabasi. Ushbu

oliygohning faol, izlanuvchan, bilimga chanqoq yoshlaridan biri.

Ulugʻbek Ismoilov bosqichma-bosqich koʻplab yutuqlarga erishib kelmoqda. Jumladan, 2017 yilda “Normal fiziologiya” va 2018 yilda “Patologik fiziologiya” fanlaridan Respublika fan olimpiadasida faxrli 3- va 2-oʻrinlarni egallagan. 2020 yilda “Yil talabasi-2020” va “TTA rektori stipendiyasi” sohibi boʻldi. Oradan bir yil oʻtgach bakalavriatura bosqichi talabalari uchun taʼsis etilgan “Ibn Sino” davlat stipendiyasi

sohibi boʻlib magistratura bosqichiga imtiyozli tarzda qabul qilindi.

Kuni kecha Ulugʻbek Prezident stipendiyasi sohibi boʻldi.

Hozirda ilmiy rahbari t.f.d., professor Nargiza Nurillayeva bilan “Qorinchalar ekstrastoliyasi boʻlgan bemorlarda jismoniy faoliyat xususiyatlari” mavzusida ilmiy ish olib bormoqda.

**Feruz AZIZOVA,**  
TTA ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektori

## USTOZ XOTIRASIGA BAGʻISHLANDI

Toshkent tibbiyot akademiyasi va S.D.Asfendiyarova nomidagi Qozogʻiston milliy tibbiyot universiteti bilan hamkorlikda professor, tibbiyot fanlari doktori, Rossiya Federatsiyasi tibbiyot texnika fanlari akademigi Omonturdi Mirtazayev xotirasiga bagʻishlangan “Epidemiologiya yuqumli va yuqumli boʻlmagan kasalliklarning epidemiologiyasida dolzarb muammolari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya oʻtkazildi.

Offlayn-onlayn tarzda olib borilgan tadbirga mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotchilar, professorlar, ustoz-shogirdlar va O.Mirtazayevning oila aʼzolari qatnashdi.


Ustoz xotirasi yana bir bora yodga olindi. Tadbir davomida ustozning tibbiyot ilmi rivojiga qoʻshgan ulkan hissasi alohida eʼtirof etildi.

Oʻz sohasining mutaxassisi sifatida ular pedagogik faoliyatni ilmiy va amaliy ish bilan birlashtirgan, TTAning tibbiy-profilaktika fakulteti dekani, Respublika Markaziy Komissiyasining aʼzosi sifatida koʻplab tashkiliy ishlarni

olib bordilar. Odobli va adolatli inson sifatida ular irodali xarakterga, tibbiyot fanlari sohasida chuqur bilimga, keng qirrali dunyoqarashga ega edi.

Ishonchimiz komilki, oʻzining ilmi, salohiyati va bor iqtidorini profilaktik tibbiyot sohasiga baxshida etgan fidoyi inson, olim, ustoz barchamiz uchun qadri boʻlgan Omonturdi Mirtazayevning hayot faoliyati yosh avlodga doim oʻrnak boʻla oladi va xotiramizda abadiy yashaydi.

**Nargiza SAIDQOSIMOVA,**  
TTA dotsenti





## QOMUSIMIZ – FAXRIMIZ

TTA 1-son davolash fakulteti 105-106 guruh talabalari bilan ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti N.Niyozova tashkilotchiligida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 31 yilligiga bag'ishlangan "Qomusimiz – faxrimiz" mavzuida bayram tadbiri o'tkazildi.

Tadbirda talabalar tomonidan Konstitutsiya haqidagi qiziqarli ma'ruza va badiiy kompozitsiya taqdim etildi. Shuningdek, Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi rasmlar ko'rgazmasi namoyish etildi.

Bundan tashqari, "Konstitutsiya bilimdoni" ruknida viktorina o'tkazilib, g'oliblarga esdalik sovg'alari topshirildi.



## SUVDEK TEKIN DEGAN JUMLA O'ZGARISHI KERAK

Taqdir taqozosi bilan dunyoni ko'plab mamlakatlarida kezdik, shu jumladan sersuv, obi hayot qahat va qimmat hududlarni ham... Ammo, o'zligini anglab yetgan jamiyat, davlat bugungi kunga kelib chuchuk suv zahirasi sarhadsiz emasligini anglab yetdi va uning isrofgarchiligini cheklovchi qator tadbirlar, islohotlar o'tkazildi.

Shaxsan o'zimiz Haj va Umra safarlarida bo'lganimizda Madina va Makka, Jidda shaharlarida qadoqlangan 250 ml. ichimlik suvi 3-5, 500 ml. ligi esa 5-7 sent ekanligiga guvoh bo'ldik. Bu albatta suvning bebaho ne'mat ekanligini e'tirofidir.

Hadisi shariflarda "Daryo yoqasida bo'lsang ham suvni isrof etmagil", qabilida janobi Payg'ambarimizdan o'git keltiriladi. Shuningdek, Kalomullohdan "Yeb-iching, ammo isrof qilmang" oyati keltirilgan. Imom Abu Homid G'azzoliy isrofgarchilikni gunohi kabiralar kitobiga ulkan gunohlar sifatida keltirib o'tgan. Muqaddas va muborak bitiklarimizda bu kabi bebaho o'gitlar yetarlicha.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining bergan ma'lumotlariga qaraganda bugungi kunda ro'yi-zamindagi 8 milliard aholining 1,5 milliardga yaqini toza ichimlik suvidan mahrum, bir milliarddan ortig'i esa to'yib ovqatlanish ne'matidan bebahra. Shuningdek, 1 milliarddan ortiq odamlar beboshpana, bexonumon...

Bunday ayanchli statistikani sanoqsiz keltirishimiz mumkin.

Zamonlar bo'ldi, vodoprovod suvidan istagancha, isrofgarlarcha foydalandik, u bilan ekinlarni sug'ordik, jo'mraklarni ochib qovun-tarvuz, mevalarni sovutdik, ulovlarni yuvdik. Buzilib yotgan jo'mraklardan oylab-yillab oqib yotsa-da, ta'mirlab qo'yish aslo xayolimizga kelmadi. Agar dunyodagi suv zahirasi bor-yo'gi 1,3 foiz qismigina chuchuk suv ekanligi, qolgani iste'molga yaroqsiz ekanligini nazarda tutsak, insoniyat naqadar ulkan global muammo oldida turganligini anglab yetamiz.

XXI asr insoniyatga o'zining unchalik ham xush bo'lmagan syurprizlarini taqdim etdi. Ekologik buhronlar, ozon qatlamlarining yemirilishi, tuproqlar eroziyasi, koronavirus pandemiyasi, aholi orasida moddalar almashinuvining buzilishi bilan kechuvchi xastaliklarning, allergik holatlarning keskin ko'payishi, ayni jismonan barkamol yoshda "qo'qqisdan o'lim sindromi"ning ko'payishi... Bunday noxush syurprizlarga ichimlik suvi tanqisliginiyam keltirib o'tishimiz lozim. Dunyoning aksariyat aholisi bugun ana shunday noxush, yechimi og'ir global muammo qarshisida ojiz turibdi. So'nggi yillarda iqlim isishi hisobiga tog'lardagi muz zahiralarning keskin kamayishi Orol dengizining sathi pasayishi O'zbekistondayam

mazkur muammo juda dolzarb ekanligini ko'rsatib turibdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 29 noyabr kuni qishloq xo'jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda ana shu muammolar ko'tarilib, zudlikda bu jahada islohotlar qilinmasa yaqin besh yillikda ko'plab hududlarda ichimlik suvi tanqisligi kuzatilishi aytib o'tildi. Shu bilan birga davlatimiz rahbari bu boradagi islohotlar ko'lami va aholining suv isrofgarchiligiga qarshi kurashda faol ishtirok zarurligi ta'kidlab o'tdi.

Yurtboshimiz qarorlaridan xulosa qilgan holda har birimiz ona yurtimizning ekologiyasi, tabiati va ichimlik suviga nisbatan qarashlarimizni o'zgartirishimiz lozim. Toshkent tibbiyot akademiyasi xodimlari, talabalar ham bunga e'tiborsiz bo'lmasliklari, shu bilan birga qabulimizga keluvchi bemorlarga ham bu borada targ'ibot-tashviqot ishlarini o'tkazishimiz lozim.

**Alijon FAQIROV,**  
Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi  
akademigi,  
Respublika Sog'liqni saqlash  
a'lochisi,  
**Qutbiddin NIZOMOV,**  
Turon xalq yozuvchisi, Respublika  
Sog'liqni saqlash a'lochisi





## DUNYO MAMLAKATLARIDA

## Yangi yil bayrami

**Angliyada...**

Angliyada Yangi yil sovg'asiz nishonlanadi va oila davrasida nishonlanishi shart emas. Bu bayram tantanasining an'anaviy taomi yo'q. Odatga ko'ra ingliz uy bekalari olmal pirog tayyorlashadi. Angliyada esa omadni uyga ko'mir parchasini yoki stakanda toza suv olib kelgan kishi keltiradi. Buyuk Britaniyada "Yangi yilni kiritish" marosimi keng tarqalgan. Angliyaliklar uchun Yangi yilning birinchi kuni yaqin o'tmish va sirli kelajak o'rtasidagi chegaradir. Bu kun bilan ko'pgina belgilar, sir va taxminlar bog'langan.

**Ispaniyada...**


Yangi yil Ispaniyada – mamlakatning davlat bayramlaridan biri hisoblanadi. 1 yanvar har yili grigorian taqvimi bo'yicha 1582 yildan boshlab nishonlanadi. Yangi yil bayrami ommaviy tarzda nishonlanadi. Bayram tunida xalq mamlakatning katta va kichik shaharlaridagi bosh maydonlarda to'planishadi, ular qadimiy soat va qo'ng'iroqlarning bong urishini kutadilar. Ispan yangi yil marosimlaridan eng qiziqarlisi – 12 dona uzum iste'mol qilish marosimidir. Yangi yil kirib kelishi arafasida soatning har bir bong urishida odamlar bir donadan uzum iste'mol qilishgan va Yangi yil tilaklarini o'z ko'ngillarida o'ylashgan.

**AQSHda...**

1 yanvar – Amerika Qo'shma Shtatlarida rasmiy ravishda Yangi yilni nishonlashadi, biroq 31 dekabrda xalq sayllari boshlanadi. Ko'pdan kutilgan bu bayramga esa Amerika aholisi noyabr oyining oxiridan tayyorgarlik qila boshlaydi. Yangi yil kirganini yarim tunda osmondagi hayratomuz mushakbozliklar, avtomobil sirenalari ovozidan bilish mumkin. Amerikaning ko'pchilik shaharlarida Yangi yil arafasida bayram namoyishlari o'tkaziladi, futbol matchlari, turli manzarali tadbirlar bo'lib o'tadi. AQSHda Yangi yilni kutib olishning eng asosiy qoidasi – xursandchilik. Amerikaliklar uchun Yangi yil – yangi hayotning boshlanishidir. Amerikaliklar bayramda o'z oldilariga turli muhim o'zgarishlarni qo'yadilar.

**Germaniyada...**

Yangi yil bayramini nemislar uyda nishonlamaydilar. Ular tanishlari, hamkasblari va do'stlari bilan uchrashib, yaxshi tilaklarni bir-biriga bildirishadi. Bu kuni hech kim o'zini yolg'iz his qilmaydi, chunki soat birinchi bong urishi bilan odamlar ko'chaga chiqishadi va Yangi yil munosabati bilan salyut boshlanadi. Eng katta bayram Berlinda bo'lib o'tadi, ko'chadagi Yangi yil bayrami 2 km. masofaga yetadi, bir soat davomida tunggi osmonda rang-barang shou davom etadi.





## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2023-yil dekabr)



№	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
<b>1-son davolash fakulteti</b>		
1.	1-son fakultet va gospital terapiya kasb patologiyasi	Mudir – 1,0
2.	1-son fakultet va gospital terapiya kasb patologiyasi	assistent – 1,0
3.	Klinik modellashtirish	assistent – 1,0
<b>Malaka oshirish fakulteti</b>		
1.	1-son Fakultet va gospital xirurgiya	dotsent – 1,0
2.	1-son Fakultet va gospital xirurgiya	katta o'qituvchi – 1,0
3.	1-son Fakultet va gospital xirurgiya	assistent – 1,0
4.	Bolalar kasalliklari	mudir – 1,0
<b>Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti</b>		
1.	Pedagogika, psixologiya va tillar	o'qituvchi – 1,0
2.	2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ	assistent – 1,0

**Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.**

**Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.**

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiya RISOGRAFida  
400 nusxada chop etildi.  
Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun ma'sul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir  
\_\_\_\_\_  
Bepul tarqatiladi